"UzAssets" investitsiya kompaniyasi"
aksiyadorlik jamiyatining
2026-yil "10" noyabrdagi
47-P -son buyrug'iga
1-Ilova

"UzAssets" investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "UzAssets" investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining (keyingi o'rinlarda – Komplayens xodimi) vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Komplayens xodimi Jamiyatda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rishga mas'ul hisoblanadi.

3. Jamiyatda korrupsiya holatlariga hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalar Komplayens xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Komplayens xodimi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Rahbarining farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki normativ hujjatlariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tashkil etish

5. Komplayens xodimi faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) hamda Jamiyat tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

6. Komplayens xodimi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda Agentlikka bo'ysunadi va uning oldida hisobdor bo'ladi. Agentlik Komplayens xodimining faoliyatiga uslubiy va metodik jihatdan yordam ko'rsatib boradi.

7. Komplayens xodimi o'z faoliyatida Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va uning oldida hisobdor bo'ladi.

8. Jamiyatda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosar lavozimi joriy etilgan hollarda, Komplayens xodimi o‘z faoliyatida ushbu o‘rinbosarga bo‘ysunadi.

9. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosar hamda Komplayens xodimi faoliyati ustidan nazorat qilish alohida qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

10. “E-anticor.uz” elektron platformasida Komplayens xodimining elektron reyestri yuritiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qilingan ishlar haqidagi hisobot elektron shaklda taqdim etiladi, anonim so‘rovnomalar o‘tkazilib, natijalari jamoatchilikka e’lon qilinadi.

3-bob. Komplayens xodimi lavozimiga nisbatan qo‘yiladigan talablar

11. Komplayens xodimi lavozimiga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar belgilanadi:

yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma’lumot;

ichki nazorat tuzilmalari boshlig‘i lavozimi uchun mutaxassisligi bo‘yicha kamida 4 yillik, boshqaruv xodimlari uchun 3 yillik ish staji. Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv kurslaridan o‘tganlik to‘g‘risida sertifikatga ega bo‘lish. Sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislar Agentlikda yuritiladigan ichki nazorat tuzilmalariga nomzodlar zaxirasiga kiritiladi.

4-bob. Komplayens xodimini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish hamda uni intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini kelishish

12. Komplayens xodimini lavozimga tayinlash, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, bo‘sh lavozimlarga muqobillik asosida, ochiq va shaffof tanlovlar orqali amalga oshiriladi.

13. Jamiyat tomonidan tanlov bosqichlarining boshlanishi va natijalari to‘g‘risida Agentlikka ma’lumot taqdim etib boriladi. Bunda nomzodlarning umumiy malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi. Tanlov o‘tkazilish kuni va vaqti to‘g‘risida Agentlik tanlov boshlanishidan kamida 3 kun oldin xabardor qilinadi.

14. Komplayens xodimini lavozimga tayinlash qonunchilik hujjatlariga muvofiq Agentlik bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi. Bunda tanlov natijalari bo‘yicha komissiya xulosasi Agentlik bilan kelishiladi.

15. Komplayens xodimini lavozimdan ozod qilish masalasi Agentlik bilan kelishiladi. Bunda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari tomonidan Agentlikka Komplayens xodimini lavozimdan ozod qilish haqida taqdimnoma yuboriladi. Taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod qilish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi va

ularni tasdiqlovchi hujjatlar (xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligiga oid ma'lumotlar va boshqalar) ilova qilinadi.

16. Agentlik tomonidan Komplayens xodimini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblangan taqdirda, shu jumladan ularning ta'qib qilinayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ushbu masalada Komplayens xodimi bilan suhbat o'tkaziladi.

17. Quyidagilar Komplayens xodimini lavozimidan ozod qilish masalasini Agentlik tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:

lavozimdan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda.

18. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko'rib chiqilib, Jamiyatga Komplayens xodimini lavozimdan ozod qilishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati tomonidan Jamiyat Komplayens xodimini egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga nomuvofiq deb topish to'g'risida Jamiyatga taqdimnoma kiritilgan taqdirda, uni lavozimidan ozod qilish masalasi Agentlik bilan kelishilmaydi.

19. Komplayens xodimini intizomiy javobgarlikka tortish masalasi Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Bunda Kuzatuv kengashi raisi tomonidan Komplayens xodimini intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha Agentlikka taqdimnoma kiritiladi.

20. Taqdimnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lgan holatlar va ularning tavsifi;

aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklar bo'yicha xizmat tekshiruvi materiallari;

xodimning tushuntirish xati yoki uni taqdim etishdan bosh tortganligi to'g'risidagi dalolatnoma;

qo'llash taklif etilayotgan intizomiy jazo turi.

21. Quyidagilar Komplayens xodimini intizomiy javobgarlikka tortish masalasini Agentlik tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda;

intizomiy jazo turi amaldagi qonunchilikka zid bo'lsa.

22. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko'rib chiqilib, Jamiyatga Komplayens xodimini intizomiy javobgarlikka tortishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat yuboriladi.

5-bob. Komplayens xodimi faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini qo‘llash

23. Davlat organi va tashkilotlar xodimlari uchun belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) Komplayens xodimining faoliyatiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Bunda samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi.

24. Komplayens xodimi faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirish masalalari Agentlik roziligi bilan amalga oshiriladi.

25. Kuzatuv kengashi raisi tomonidan Komplayens xodimiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirish bo‘yicha Agentlikka taqdimnoma kiritiladi.

26. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirishga quyidagilar asos bo‘ladi:

ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilmaganligi;

xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaslik yoki intizomiy jazo qo‘llanilganligi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi to‘liq joriy etilmaganligi yoki samarali faoliyat yuritmayotganligi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilmaganligi.

27. Jamiyat tomonidan taqdim etilgan asoslantiruvchi hujjatlar Agentlik tomonidan ular berilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Komplayens xodimiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini pasaytirishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

6-bob. Ichki nazorat tuzilmalari vazifa va funksiyalari

28. Komplayens xodimining asosiy maqsadi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga javob beruvchi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat.

29. Quyidagilar Komplayens xodimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki siyosat amalga oshirilishi hamda ushbu sohadagi faoliyat muvofiqlashtirilishida bevosita ishtirok etadi;

Jamiyat faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar hamda nazorat tizimi joriy etilishini ta’minlaydi;

Jamiyatda qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralarini ko‘radi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasini amalga oshiruvchi, budjet mablag‘lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo‘linmalarning hamda shaxsiy xavfsizlik bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish va baholash, bartaraf etish va ularning oldini olish bo‘yicha zarur choralarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirib borish choralarini ko‘radi;

Jamiyat faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshiradi;

Jamiyatda korrupsiya holatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o‘tkazilishini hamda qat’iy javobgarlik choralari ko‘rilishini tashkil etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

30. Komplayens xodimi asosiy vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki siyosat amalga oshirilishi hamda ushbu sohadagi faoliyat muvofiqlashtirilishida bevosita ishtirok etish sohasida:

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta’minlaydi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Boshqaruv raisiga kiritadi;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini yaratadi;

xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

Jamiyat tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida boshqa davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi, tahlil qiladi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

b) Jamiyat faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar hamda nazorat tizimi joriy etilishini ta'minlash sohasida:

Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Jamiyatning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqadi va choralar ko'radi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi va choralar ko'riladi;

aniqlangan huquqbuzarliklar yoki kelib tushgan xabarlar asosida xizmat tekshiruvlarini o'tkazadi;

Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

v) Jamiyatda qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralarini ko'rish sohasida:

Jamiyat xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlaydi, monitoring qiladi va ijrosi ustidan nazoratini amalga oshiradi;

Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyaning oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglar o'tkazadi;

Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarning yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Jamiyatning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

g) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasini amalga oshiruvchi, budjet mablag‘lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo‘linmalarning hamda shaxsiy xavfsizlik bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

Jamiyat tomonidan budjet mablag‘larining sarflanishi, davlat xaridlari va moliyaviy operatsiyalar jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning oldini olish bo‘yicha mablag‘lari aylanmasi bilan bog‘liq shaffof bo‘lmagan yoki xavfli jarayonlarni aniqlashda budjet mablag‘lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo‘linmalar bilan birgalikda yoki o‘zi mustaqil monitoring o‘tkazadi va tegishli choralarni ko‘rib boradi;

o‘z vakolati doirasidagi yirik investitsiya loyihalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekspertiza qiladi va baholaydi;

ichki audit xizmati bilan birgalikda asosiy vositalar bo‘yicha davlat xaridining qonuniyligini o‘rganadi va tegishli yozma xulosalarini xarid komissiyasiga taqdim etadi;

Jamiyatda xodimlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi, xizmat mavqeyini suiiste’mol qilish va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tegishli bo‘linmalar bilan qo‘shma profilaktik tadbirlarni tashkil etadi;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik alomatlari yoki qonun buzilishi holatlari yuzasidan kelib tushgan ma’lumotlarni o‘rganishda shaxsiy xavfsizlik xizmati bilan o‘zaro axborot almashinuvini ta’minlaydi;

budjet mablag‘lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo‘linmalar tomonidan aniqlangan qonunbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini tahlil qilgan holda, ularni bartaraf etish bo‘yicha yagona yondashuv va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi;

d) korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish va baholash, bartaraf etish va ularning oldini olish bo‘yicha zarur choralarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etish sohasida:

aniqlangan xavflarni baholaydi hamda Jamiyatning “Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi”ni tuzadi va muntazam yangilab boradi;

Jamiyatda korrupsiya xavf-xatarlarining oldini olish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etadi va nazorat qiladi;

xavflarni kamaytirish choralarining samaradorligini monitoring qilib, rahbariyatga tegishli axborot va takliflar kiritib boradi;

e) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirib borish choralarini ko‘rish sohasida:

o‘z xizmatlarini ko‘rsatish sohasi va tizimda mavjud byurokratik to‘siqlar va korrupsiyaviy omillar bo‘yicha axborot-tahliliy ma’lumotlar tayyorlaydi,

korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, shu jumladan sohada raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini tashkil etadi va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining natijadorligini doimiy ravishda baholab boradi (indikatorlar asosida) va tizimni yanada rivojlantirish bo‘yicha rahbariyatga asoslangan takliflar kiritadi;

ichki idoraviy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish hamda ekspertiza yakunlari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omilni bartaraf etish choralarini ko‘radi yoki bekor qilish bo‘yicha Boshqaruv raisiga taklif kiritadi;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

j) Jamiyat faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshirish sohasida:

Jamiyat faoliyatining ochiqligini oshirish, jamoatchilik oldida hisobdorlikni ta’minlash hamda rasmiy veb-saytlar va axborot resurslarida joylashtirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarning muntazam yangilab borilishini monitoring qiladi;

davlat xaridlari va tanlovlarning shaffof o‘tkazilishi yuzasidan ichki nazoratni amalga oshiradi;

davlat xaridlarida ishtirok etuvchi shaxslarning o‘zaro affillanganlik holatlarini (manfaatlar bog‘liqligini) tekshiradi va maxsus reyestrlarni yuritadi;

davlat xaridlari va tanlovlar jarayonlarida manfaatdor shaxslar ishtirok etishining oldini olish bo‘yicha preventiv choralarni ko‘radi;

xodimlarning o‘z xizmat vazifalarini bajarishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlaydi, baholaydi va uni hal etish choralarini ko‘radi;

manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish tizimini joriy etadi va bu borada xodimlar tomonidan deklaratsiyalar o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qiladi;

shaxsiy manfaatdorlik bilan bog‘liq korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish sohasida ta’sirchan ichki nazorat mexanizmlarining faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi hamda belgilangan talablarni buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash yuzasidan Boshqaruv raisiga asoslangan takliflar kiritadi;

z) Jamiyatda korrupsiya holatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o‘tkazilishini hamda qat’iy javobgarlik choralari ko‘rilishini tashkil etish sohasida:

Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo‘yicha xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida tizimdagi faoliyati yuzasidan nazorat tadbirlarini amalga oshiradi;

Jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazadi;

ko‘rilgan javobgarlik choralarining ijrosini nazorat qiladi va kelgusida bunday huquqbuzarliklar takrorlanishining oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

i) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi:

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha vakolatli organlar bilan tezkor axborot almashinuvini ta’minlaydi, ularning so‘rovlariga asosan zaruriy ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;

tegishli hujjatlar va ma’lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etadi, shuningdek kadrlar masalasi va moliyaviy xarajatlar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqini vaqtincha to‘xtatish yoki tegishli rahbarni yoxud xodimni vazifasini bajarishdan vaqtincha chetlatish borasida taklif kiritadi.

31. Komplayens xodimi qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalar va funksiyalarni ham amalga oshiradi.

32. Komplayens xodimi zimmasiga ularning vazifalaridan kelib chiqmaydigan topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida Komplayens xodimi davlat xaridlari, shu jumladan xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan, davlat-xususiy sheriklik hamda ishonchli boshqaruvga berish sohalaridagi tanlov (tender) komissiyalari tarkibiga kiritilmaydi.

7-bob. Ichki nazorat tuzilmalarining huquq va majburiyatlari

33. Komplayens xodimi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

Jamiyatdagi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot hamda ma’lumotlar bazalaridan foydalanish;

Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi choralarni hamda nazorat tadbirlarini mustaqil yoki ishchi guruh tuzgan holda tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan hamkorlik qilish, ularni belgilangan tartibda jalb etish choralarini ko‘rish;

korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularning oldini olish va korrupsiya holatlariga chek qo‘yish maqsadida shaxslarning xatti-harakatlarini, hodisalarni hamda jarayonlarni bevosita yoki bilvosita kuzatish va qayd etish;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma’lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlarni va materiallarni so‘rash va olish;

vakolatini amalga oshirish doirasida zarurat tug‘ilganda tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish maqsadida davlat organi va tashkilotining obyektlariga to‘sqinliksiz kirish;

Jamiyatda aniqlangan korrupsiya holatlari bo‘yicha yuqori turuvchi komplayens xizmatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil ravishda xabardor qilish;

Jamiyatda korrupsiya holatlarini aniqlash hamda ularga chek qo‘yish maqsadida muayyan shaxslar bilan belgilangan tartibda nooshkora hamkorlik o‘rnatish;

Jamiyatda aniqlangan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari bo‘yicha to‘plangan materiallarni qonuniy chora ko‘rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki bevosita ularning ichki nazorat tuzilmalariga taqdim etish;

Jamiyatda qonun buzilishi hollarining oldini olish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar va ushbu hollarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

34. Komplayens xodimi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

ushbu Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Prezident Administratsiyasining topshiriqlari va qonunchilik hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilish va o‘z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklari alomatlari aniqlanganligi to‘g‘risida zudlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori turuvchi organ va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan Boshqaruv raisining ma’lumotnomalar kiritish;

har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi oylik hisobotni Boshqaruv raisiga taqdim etish.

8-bob. Ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish

35. Komplayens xodimi faoliyati Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi, tahliliy va huquqiy-uslubiy jihatdan ta'minlanadi, shuningdek, Agentlik Komplayens xodimini stajirovka va attestatsiyadan o'tkazadi hamda malakasini oshiradi.

36. Komplayens xodimi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati qonunchilik hujjatlariga asosan muvofiqlashtirib boradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati tomonidan Komplayens xodimining malakasi yetarli bo'lmaganligi qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlangan taqdirda egallab turgan lavozimidan ozod etish to'g'risida Jamiyatga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritishga haqlidir.

37. Jamiyat boshqaruv organlari rahbarlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklari alomatlari aniqlanganda yoki jinoiy guruh faoliyatiga rahnamolik qilayotgan deb hisoblash uchun yetarli (hujjatlar bilan tasdiqlangan va asosli dalillar) asoslar mavjud bo'lganda Komplayens xodimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati bilan kelishgan holda tegishli hujjatlar va ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga to'g'ridan-to'g'ri taqdim etish, shuningdek kadrlar masalasi va moliyaviy xarajatlar bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqini vaqtincha to'xtatish yoki tegishli rahbarni yoxud xodimni vazifasini bajarishdan vaqtincha chetlatish borasida taklif kiritish vakolatiga ega bo'ladi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

38. Komplayens xodimi davlat himoyasidadir.

39. Komplayens xodimi qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinadi.

40. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga asosan javob beradi.